

**AshurmatovaMohirava, Foziljonova Marjona**

**O‘zbek tili yo‘nalishi 2-bosqich talabalari. Farg‘onaDavlatuniversitetifilologiyafakulteti**

## **ALISHER NAVOIY ASARLARIDA OLMOSHLARNING QO‘LLANILISHI**

**ANATATSIYA:** Ushbu maqolamda Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan olmoshlar tahlili, ular qanday ma‘noda qo‘llanganligi, ularning hozirgi o‘zbek tilida ishlatilishi yoki yo‘q bo‘lib ketganligi haqida boradi. Maqolam bevosita tarixi yani o‘zbek tili tarixi fani bilan bog‘liqdir. Bilamizki o‘zbek tili tarixi fani asosiy ma‘lumot bazasi bu Alisher Navoiy asarlari hisoblanadi.

**KALIT SO‘ZLAR:** Alar, aning, allar, anda, andin, alarg‘a, nimarsa, kimsa, “Xamsa” asari, “Navoiy asarlari izohli lug‘ati”, Yusupov monografiyasi “Eski o‘zbek adabiy tilida olmoshlar (XV-XVI asrlar).”

Olmosh(ichibo‘shso‘zlar)-Barchamusta qilso‘z turkumlariva hatto yordamchi so‘zlar, so‘z birikmasi hamda gap o‘rnida almashinib qo‘llanuvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so‘roq bildiruvchiso‘zlarolmosh hisoblanadi. Tilning muhim elementi hisoblanadigan so‘zning lingvistik tabiati, shakl va ma‘no xususiyatlari, uning nutqiy jarayonda tutgan o‘rni qadimdan tadqiqotchilarning diqqatini itortib kelmoqda. So‘zlarning inson, narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat- holat singarilarni ifodalashdagi o‘ziga xos jihatlarni belgilash maqsadida ularni muayyan guruhlar va turkumlarga ajratgan holda tahlil etish borasida tilshunolar yakdildirlar.

O‘zbek tilshunosligida olmoshlar tadqiqiga bag‘ishlangan sezilarli ishlardan biri Yusupovning kuzatishlari bo‘lib hisoblanadi. Olimning “Eski o‘zbek adabiy tilida olmoshlar (XV-XVI asrlar)” deb nomlangan monografiyasida Alisher Navoiy va uning zamondoshlari asarlarida, XV-XVI asrlarda yuzaga kelgan yozmayodgorliklarda o‘zifodasini topgan olmoshlarning barcha turlari aniqlangan va tavsiflangan. Eski o‘zbek tili va hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilgan va qo‘llanilayotgan olmoshlarning asosiy leksik grammatik hamda semantik farqlari, o‘ziga xos xususiyatlari ishonchli dalillar asosida ko‘rsatib berilgan. Ilovalardan ma‘lum bo‘lishicha, XV-XVI asrlar eski o‘zbek tilida ifodasini topgan 64 ta olmosh (men, sen, ul, u, nimarsa, kimsa, avaboshqalar), qayd etilgan davrda qo‘llangan 48 ta olmoshning asl iturkiy ekanligi, 9 ta arab tilidan o‘zlashtirilgan, 7 ta fors-tojik tillaridan olingan.

Bilamizki nutqimizni olmoshlarisiz tassavvur qilib bo‘lmaydi. Ularni qo‘llash orqali qisqalikka erishamiz va bir so‘zni bir gap tarkibida ikki marta qo‘llashdan qochamiz. Buyuk so‘z san‘atkori turkiy til asoschisi, o‘z tiliga o‘zi nom bergan buyuk olim bobomiz ijodida ham olmoshlar o‘rni beqiyosdir. Navoiy ijodiga nazar tashlaydigan bo‘lsak olmoshlardan ustalik bilan, turli ma‘nolarda qo‘llanganligini guvohi bo‘miz. Maqolani yozish davomida ko‘plab Navoiy asarlaridan o‘qdim va eng ko‘p qo‘llangan olmoshlar quyidagilarligini angladim. Olmoshlar Navoiydan oldin bo‘lmagan deyishdan yiroqmiz albatta, lekin Navoiy ularni yuqori darajaga olib chiqqan yuqorida aytib o‘tganimizdek XV-XVI asrlarda yani Navoiy asarlarida olmoshlarning barcha turlari aniqlangan. O‘zi aslida Navoiy turkiy tilni rivojlantirganligini bilamiz shunday ekan turkiy tildagi so‘z turkumlar ham rivojlangan bo‘ladi bu ham yuqoridagi so‘zlarimizga dalil bo‘ladi.

Navoiy asarlarida qo‘llangan olmoshlar hozirda ham qo‘llanadi lekin ma‘um bir fonetik o‘zgarishlarga uchragan holda. Ularni birgalikda ko‘rib o‘tamiz :

Angategur qo‘lumnikim yiroqtur,

Qo‘lumg‘asolanikimyaxshiroqtur. (“Farhodva Shirin”  
dostonidan).

\*\*\*

Alarg‘aoshkorovunihoni,

Aningbirlaralarnihambahramand. (“Farhodva Shirin”  
dostonidan).

\*\*\*

Ulkishiorayladi yolg'ondemak,

Bo'lmas ani er-u musulmon demak. (“Hayratul- abror”).

RostgapirmaydigankishiniNavoiyervamusulmonemas! - deya uqtiradi.

\*\*\*

Aysh,Navoiy,nechadilkashdurur,

Lek adab birla hayo xushdurur. (“Hayratul- abror”).

\*\*\*

Mengachunyo'qtiriklikningfalohi,

Siz aylang ulcha bo'lg'ay el salohi. (“Farhodva Shirin”).

Ko‘rib turibsizki har bir baytda kamida ikkita olmosh ishtirok etgan, bir so‘z keying baytda qatnashmagan uning o‘rnigaungaishoraqiluvchiolmoshqatnashganvabubilan shoir o‘z sheriyatida yangicha uslubyarata olgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

## **XULOSA**

Buyuk shoir umri davomida nafaqat turkey tilni rivojlanishiga o‘z xissasini qo‘shgan balki undagi har bir so‘z turkumini eng yuqori darajaga ko‘targan, uni mukammalikka olibchiqqan.Shunig uchun aytaolamizolmoshlar XV-XVI asrda Navoiytashabbusibilano‘zravnaqinitopgan.Vakelasiavlodga yozma manba qilib qoldirgan. Agar Navoiy o‘z she‘rlarida bunchalik sermahsul olmoshlardan foydalanmaganida hozir biz nutqimizga judakam miqdorda olmoshlar yetib kelgan bo‘lardi.

## **FOYDALANILGANADABIYOTLARRO‘YXATI.**

1. Hozirgio‘zbekadabiytili.Akademiklitseylarning1-2-3- bosqich talabalari uchun darslik. T.: Xalq merosi, 2013.
2. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
3. “Xamsa“asari.
4. “Navoiyasarlarizohlilug‘ati.”
5. Yusupovmonografiyasi“Eskio‘zbekadabiytilidaolmoshlar